

ALEKSANDR FAYNBERG ASARLARIDA URUSH VA TINCHLIK

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asrda butun dunyodagi ko'pchilik ijodkorlar insoniyat boshiga ayovsiz musibatlarni solgan urush mazusida o'z asarlarni yaratdilar. Yurtimizda ham ko'plab milliy, urush paytida evakuvasiya qilgan, o'zga millat vakili bo'lsa-da O'zbekistonda tug'ilgan ijodkorlar o'z asarlarida shu mavzuni ko'tarib chiqdilar. Mana shunday ijodkorlardan biri Aleksandr Arkadevich Faynberg bo'lib, u shoir, dramaturg, tarjimon hamda ssenariynavis sifatida adabiyotimizdan munosib o'rin egallagan. Faynberg ijodiyotida urush va tinchlik mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Urush insoniyatning fojiasi, tinchlik esa insoniyatning eng bebaho ne'mati ekani tasvirlanadi. Shoirning she'rlar, nasriy va dramatik asarlarida bu mavzu chuqur badiiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: urush, front, iztirob, "1941", "1942-yilning kuzi", "Toshkent. 1943", "Arg'un", kerosin, tinchlik.

Ikkinchi jahon urushi oqibatlarini Faynberg ijodida o'chmas iz qoldirgan, chunki o'sha oqibatlar uning qalbidagi bitmas jarohat edi. Sashaning bolaligi Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keladi. O'sha paytda u 2 yoshda edi. O'sha musibatli yillardagi mash'um voqealar Sashaning yuragida chuqur jarohat chandiqlarini qoldiradi. Uning "1941", "1942-yilning kuzi", "Toshkent. 1943", "Arg'un" sarlavhali she'rlari murg'ak yurak jarohatidan siqilgan so'ngsiz iztirobni ko'ramiz.

Olti oyki, Lidiya xola devona-

O'g'illari o'lgan ona kutar xat.

Yakanchi eshikda bamisli kalxat

Eski buyumlarga bo'lar parvona.

Satrdan o'sh paytdagi xalqning ahvoli, dar-u g'am, onalar qalbidagi o'kinch-faryod, beshafqat ocharchilik shu darajada yaxshi tasvirlangan, o'quvchi unda mujassam etilgan dardni his qilishi, bexosdan ko'ziga yosh kelishi tabiiy.

Urush davrida chiroq yoqish, primusda issiq ovqat tayyorlash uchun kerosin topilmas, hamma yonilg'i frontga jo'natilardi. O'zbek xalqi esa shunday davrda yo'qdan bor qilib, Raneviskayaga kerosin topib berishadi, Axmatovaga xonadonlari eshigini keng ochishadi. Va bu barcha ma'lumotlar uning she'rlarida fakt sifatida keltiriladi.

Boshingni silaydi o'zbek mehribon.

Ranevskaya yo'qdan topgan kerosin.

Axmatovaga keng ochiq xonadon.

Faynberg she'rlarida urush faqat jang maydonlarida emas, oddiy insonlar ruhida ham ketayotgan fojia ekanligi tasvirlanadi. U urushni inson qalbini izdan chiqaruvchi, jamiyatni vayron qiluvchi dahshatli hodisa tariqasida talqin etadi. Darhaqiqat, urush-insoniyatga nisbatan jinoyatdir. Uning she'ridan keltirilgan shu ikki misraga e'tibor qarataylik-a:

Har bir bolakay ko'zida-yo'qotilgan otaning soyasi,

Har bir onaning yuragida-tugamaydi sog'inch.

Ijodkor shu misralar orqali urush o'zidan qoldirgan asoratlar yillar davomida o'sha talofatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan insonlar, bevaqt otasidan ayrilgan bolalar, bolasidan ayrilgan mushfiq onalar qalbining tub-tubida yillar o'tmasin bitmay qolaveradigan og'ir jarohat ekanini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagi kabi satrlarni yoki nasriy asarlarni mutoala qilar ekanmiz tinchlik qanchalik bebaho tuhfa ekanini anglayveramiz. Faynberg ham o'z asarlarida shu g'oyani tushuntirib, butun dunyodagi jamiki insonlarni, millat-u elatlarni birdamlikka, hamjihatlikka chorlashdan aslo tolmaydi. Uning asarlarida tinchlik kelajak avlodning baxti bilan bog'lanadi. Shuningdek, u tinchlikni asrash butun insoniyatning eng ulug' burchi deb hisoblaydi. Shoirning asarlari biz yosh avlodni urush takrorlanmasligiga va tinchlik avloddan-avlodga saqlanishi kerakligiga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Arkadevich Faynbergning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha dastur va uslubiy qo'llanma
2. Файнберг А.А. Избранное.-Ташкент:O'zbekiston,1999.
3. Файнберг А.А. Стихотворения и поэмы.-Ташкент:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1980.
4. Ziyo.uz-"Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodi".
5. Karimov N. O'zbekiston adabiyotida lirizm.-Toshkent:Universitet,2002.